




# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra  
dastlabki ma'lumot*

Toshket shahri bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **41 730,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **114,9 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **16 367,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **135,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **25 363,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,7 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **829,6** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **106,8 %**)ni tashkil etdi.


### Chakana savdo aylanmasi tarkibi, foizda



### Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




### O'sish sur'atlari, foizda



### Dehqon bozorlari



### Chorva bozorlari



## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### ENG YUQORI ULUSH

Shahar chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **14,2 %** ulush bilan **5 930,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Chilonzor**  
**5 930,3**

**Yunusobod**  
**5 100,2**

**Uchtepa**  
**4 394,9**

**Shayhontohur**  
**4 240,8**

**Yakkasaroy**  
**3 818,2**

**Sirg`ali**  
**3 688,4**

**Yashnobod**  
**3 102,9**

**Mirobod**  
**2 995,6**

**Olmazor**  
**2 844,0**


**Bektemir**  
**2 815,1**

**M.Ulug`bek**  
**2 478,3**

### ENG QUYI ULUSH

Toshkent shahri chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Sirdaryo viloyati **0,8 %** ulush bilan **321,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Yangihayot**  
**321,5**



### UMUMIY MA'LUMOT

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **41 730,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **114,9 %** ni tashkil etdi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


|                    | Jami,<br>mlrd. so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda | Yirik<br>korxonalar,<br>mlrd.<br>so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda | Kichik biznes<br>va xususiy<br>tadbirkorlik,<br>mlrd. so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda |
|--------------------|---------------------|---|---------------------------------------|---|--|---|
| <b>Toshkent sh</b> | <b>41 730,4</b>     | <b>114,9</b>  | <b>16 367,0</b>                       | <b>135,3</b>  | <b>25 363,4</b>  | <b>104,7</b>  |
| Uchtepa            | 4 394,9             | 109,4   | 454,6                                 | 127,5   | 3 940,3  | 107,7   |
| Bektemir           | 2 815,1             | 112,6   | 312,9                                 | 188,7   | 2 502,2  | 107,2   |
| Yunusobod          | 5 100,2             | 105,9   | 2 022,8                               | 115,9   | 3 077,4  | 100,2   |
| M.Ulug`bek         | 2 478,3             | 111,7   | 787,7                                 | 136,2   | 1 690,6  | 103,0   |
| Mirobod            | 2 995,6             | 120,9   | 1 554,0                               | 143,7   | 1 441,6  | 103,2   |
| Shayhontohur       | 4 240,8             | 119,3   | 1 767,7                               | 180,3   | 2 473,1  | 96,0  |
| Olmazor            | 2 844,0             | 122,6   | 1 288,4                               | 158,0   | 1 555,6  | 103,4   |
| Sirg`ali           | 3 688,4             | 142,1   | 2 574,3                               | 226,4   | 1 114,2  | 76,4  |
| Yakkasaroy         | 3 818,2             | 112,3   | 1 419,2                               | 97,4  | 2 399,1  | 123,5   |
| Yashnobod          | 3 102,9             | 118,4   | 1 314,6                               | 149,4   | 1 788,3  | 102,8   |
| Yangihayot         | 321,5               | 107,8   | 1,7                                   | -   | 319,8  | 107,3   |
| Chilonzor          | 5 930,3             | 107,7   | 2 869,2                               | 99,0  | 3 061,1  | 117,3   |

2020-yilning mos davriga nisbatan chakana savdo aylanmasi o'sishining yuqori ko'rsatkichlari Sirg`ali (**226,4** %), Bektemir (**188,7** %) va Shayhontohur (**180,3** %) tumanlarida qayd etildi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar , foizda

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020-yilning mos davriga nisbatan **135,3 %** ga o'sdi va **16 367,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa, umumiy savdo hajmining **39,2 %** ulushiga to'g'ri keldi.



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



10,8


**Shayhontohur** 1 767,7  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm

11,6

**Yunusobod** 2 022,8  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm

15,7

**Sirg`ali** 2 574,3  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so'm






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **24 533,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **104,6** % ga oshdi. Shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **58,8** % ni tashkil etdi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda**



### Tovar aylanmasi hajmi, mln.so'm

**Chilonzor 2 979,5**


**Yunusobod 2 980,6**


**Uchtepa.3 858,7**



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar, foizda**



12.1 


12,1 

15,7 



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Yangihayot (**97,8 %**), Uchtepa (**87,8 %**), Bektemir (**84,5 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **39,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Sirg'ali (**69,8 %**), Mirbod (**51,9%**), Chilonzor (**48,4 %**) tumanlarida kuzatildi.



# AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021-yilning yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **14 853,3** ming so'mni (2020-yilning mos davriga nisbatan **106,8** % ga oshdi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Bektemir (**58 163,4** ming so'm), Yakkasaroy (**31 144,0** ming so'm) va Sirg'ali (**26 689,2** ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

|                    | Hajm, ming so'm | 2020-yilning mos davriga nisbatan, foizda |
|--------------------|-----------------|---|
| <b>Toshkent sh</b> | <b>14 853,3</b> | <b>106,8</b>                              |
| Uchtepa            | 15 634,8        | 106,7                                     |
| Bektemir           | 58 163,4        | 82,1                                      |
| Yunusobod          | 14 391,0        | 103,0                                     |
| M.Ulug`bek         | 8 080,6         | 101,7                                     |
| Mirobod            | 20 802,8        | 117,5                                     |
| Shayhontohur       | 12 095,9        | 116,8                                     |
| Olmazor            | 7 482,2         | 119,3                                     |
| Sirg`ali           | 26 689,2        | 209,8                                     |
| Yakkasaroy         | 31 144,0        | 109,6                                     |
| Yashnobod          | 11 258,7        | 107,0                                     |
| Yangihayot         | 2 218,8         |   |
| Chilonzor          | 22 557,4        | 103,8                                     |

## Eng yuqori hajm, ming so'm

Bektemir – 58 163,4

Yakkasaroy – 31 144,0

Sirg`ali – 26 689,2

## Eng quyi hajm, ming so'm

M.Ulug`bek – 8 080,6

Olmazor – 7 482,2

Yangihayot – 2 218,8





## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Toshkent shahri bo'yicha 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **829,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **106,8** % ga ko'paydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **751,1** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **102,0** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **78,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **196,9** %) tashkil etdi.

### Tovar aylanmasi ulushi va hajmi

Uyushmagan savdo

**829,6 mlrd. so'm, 100 %**

Dehqon bozorlari


**751,1 mlrd. so'm, 90,5 %**

Chorva bozorlari

**78,5 mlrd. so'm, 9,5%**

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi, foizda


Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari



Uyushmagan savdo tovar aylanmasida ulushi katta hududlar, foizda



## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **751,1** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **78,85** mlrd. so'mni tashkil etdi.

\* *Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda*

\* *Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari*

|                 | Jami,<br>mlrd. so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda | Dehqon<br>bozorlari,<br>mlrd. so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda | Chorva<br>(parranda)<br>bozorlari,<br>mlrd. so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda |
|-----------------|---------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| Toshkent shahri | 829,6               | 106,8   | 751,1                              | 102,0   | 78,5   | 196,9   |
| Uchtepa         | 81,6                | 106,9   | 81,6                               | 106,9   |  |   |
| Bektemir        | 123,2               | 107,8   | 67,8                               | 106,8   | 55,4   | 152,0   |
| Yunusobod       | 96,8                | 107,3   | 96,8                               | 107,3   |  |   |
| Mirzo Ulug'bek  | 86,7                | 107,1   | 86,7                               | 107,1   |  |   |
| Mirobod         | 46,2                | 105,0   | 46,2                               | 105,0   |  |   |
| Shayxontohur    | 66,5                | 106,4   | 66,5                               | 106,4   |  |   |
| Olmazor         | 63,6                | 106,2   | 40,5                               | 103,6   | 23,1   | 163,8   |
| Sirg'ali        | 35,9                | 103,8   | 35,9                               | 103,8   |  |   |
| Yakkasaroy      | 61,1                | 106,1   | 61,1                               | 106,1   |  |   |
| Yashnobod       | 81,1                | 106,9   | 81,1                               | 106,9   |  |   |
| Yangihayot      | 5,2                 | 79,2  | 5,2                                | 79,2  |  |   |
| Chilonzor       | 81,6                | 110,6   | 81,6                               | 110,6   |  |   |

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **751,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**463,7** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



13,1  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



463,7  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari**



24,3  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

79,7  
mlrd. so'm

**Tovuq go'shti**



42,1  
mlrd. so'm

**Non va non mahsulotlari**



10,8  
mlrd. so'm

**Tuxum**



53,0  
mlrd. so'm

**Don mahsulotlari** (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)



9,9  
mlrd. so'm

**Ziravorlar**



39,3  
mlrd. so'm

**Sut va sut mahsulotlari**



1,1  
mlrd. so'm

**Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar**



13,5  
mlrd. so'm

**Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari** (manzarali va qishloq xo'jaligi ko'chatlari)



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **78,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **57,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **13,5** mlrd. so'mni, otlar **5,9** mlrd. so'mni, parrandalar **1,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

23,5  
mlrd. so'm



16,2  
mlrd. so'm



11,7  
mlrd. so'm

1 yoshgacha  
bo'lgan  
yosh mollar

17,7  
mlrd. so'm

2 yoshdan katta  
bo'lgan qoramollar



1 yoshdan 2 yoshgacha  
bo'lgan yosh mollar

5,9  
mlrd. so'm

Qo'ylar

1,8  
mlrd. so'm




Otlar

0,8  
mlrd. so'm

Echkilar

0,9  
mlrd. so'm



Kurka, o'rdak, g'ozlar

Tovuqlar

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **4,5 %** ni tashkil etib, **1 903,1** mlrd. so'mga yetdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan **14,7 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **125,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

|                        | Jami,<br>mlrd.<br>so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda | Yirik<br>korxonalar,<br>mlrd. so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda | Kichik biznes<br>va xususiy<br>tadbirkorlik,<br>mlrd. so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda |
|------------------------|------------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| <b>Toshkent shahri</b> | <b>1 903,2</b>         | <b>125,0</b>  | <b>757,5</b>                       | <b>191,6</b>  | <b>1 145,7</b>   | <b>101,6</b>  |
| <b>Uchtepa</b>         | 66,9                   | 106,4   | 5,0                                | 154,2   | 61,9   | 103,8   |
| <b>Bektemir</b>        | 50,2                   | 145,8   | 17,0                               | 274,2   | 33,2   | 117,5   |
| <b>Yunusobod</b>       | 267,5                  | 114,6   | 89,4                               | 178,1   | 178,1  | 97,2  |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | 158,7                  | 97,2  | 6,2                                | 44,0  | 152,5  | 102,3   |
| <b>Mirobod</b>         | 161,7                  | 113,4   | 29,2                               | 138,6   | 132,6  | 109,1   |
| <b>Shayxontohur</b>    | 504,8                  | 230,9   | 390,3                              | 362,3   | 114,5  | 103,2   |
| <b>Olmazor</b>         | 96,9                   | 91,9  | 0,0                                | 0,0   | 96,9   | 100,6   |
| <b>Sirg'ali</b>        | 122,8                  | 151,0   | 87,2                               | 184,6   | 35,5   | 104,4   |
| <b>Yakkasaroy</b>      | 138,6                  | 97,7  | 18,4                               | 87,2  | 120,3  | 99,6  |
| <b>Yashnobod</b>       | 182,3                  | 198,2   | 86,5                               | 3 400,8   | 95,8   | 107,1   |
| <b>Yangihayot</b>      | 13,0                   | 109,1   | 0,0                                | -   | 13,0   | 109,1   |
| <b>Chilonzor</b>       | 438,2                  | 108,6   | 28,3                               | 25,1  | 111,3  | 91,2  |

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Toshkent shahar bo'yicha 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **53 448,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **115,4 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **20 831,1** mlrd. so'mni (**134,4 %** ga ko'paydi) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

**53,4 trln so'm, 100,0 %**

**Ulgurji savdo**


**20,8 trln so'm,  
39,0%**

**Yirik korxonalar**




**32,6 trln so'm, 61,0 %**

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Yunusobod (**133,6 %**), Yangihayot (**131,9 %**) va Mirobod (**129,2 %**) tumanlarida kuzatildi.

|                        | Jami,<br>mlrd. so'm | 2020-yilning<br>mos davriga<br>nisbatan,<br>foizda | Yirik<br>korxonalar,<br>mlrd.<br>so'm | 2020-yilning<br>mos davriga<br>nisbatan,<br>foizda | Mikrofirma<br>va kichik<br>korxonalar,<br>mlrd. so'm | 2020-yil-<br>ning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>foizda |
|------------------------|---------------------|--|---------------------------------------|--|--|---|
| <b>Toshkent shahri</b> | <b>53 448,6</b>     | <b>115,4</b>                                       | <b>20 831,1</b>                       | <b>134,4</b>                                       | <b>32 617,6</b>                                      | <b>105,8</b>  |
| <b>Uchtepa</b>         | 2 997,2             | 110,2  | 393,2                                 | 171,6  | 2 603,9  | 104,6   |
| <b>Bektemir</b>        | 976,5               | 109,5  | 67,9                                  | 65,8   | 908,6  | 115,3   |
| <b>Yunusobod</b>       | 4 652,2             | 133,6  | 1 948,3                               | 217,8  | 2 704,0  | 104,5   |
| <b>Mirzo Ulug'bek</b>  | 5 241,2             | 110,0  | 1 606,3                               | 121,9  | 3 634,8  | 105,5   |
| <b>Mirobod</b>         | 6 321,1             | 129,2  | 2 356,8                               | 219,0  | 3 964,2  | 103,9   |
| <b>Shayxontohur</b>    | 3 201,3             | 119,6  | 805,3                                 | 206,5  | 2 396,0  | 104,8   |
| <b>Olmazor</b>         | 7 395,6             | 120,4  | 3 540,8                               | 145,4  | 3 854,8  | 103,9   |
| <b>Sirg'ali</b>        | 3 269,8             | 108,9  | 710,5                                 | 100,9  | 2 559,3  | 111,3   |
| <b>Yakkasaroy</b>      | 5 270,7             | 106,5  | 1 844,7                               | 111,2  | 3 425,9  | 104,1   |
| <b>Yashnobod</b>       | 7 342,0             | 103,8  | 4 433,0                               | 99,9   | 2 909,0  | 110,2   |
| <b>Yangihayot</b>      | 639,2               | 131,9  | 91,9                                  | -  | 547,2  | 112,9   |
| <b>Chilonzor</b>       | 6 141,9             | 117,2  | 3 032,2                               | 134,3  | 3 109,7  | 104,3   |

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,1 %** ni tashkil qildi. 2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **94 369,1** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **80 202,5** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **9,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Davlat mulki, 0,1 %

2021- yil  
yanvar -  
sentabr

Nodavlat mulk, 99,9 %

Davlat mulki, 0,1 %

2020- yil  
yanvar -  
sentabr

Nodavlat mulk, 99,9 %



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkiga tegishlisi hali ham Toshkent shahrida (**0,20 %**), Navoiy (**0,15 %**) va Andijon (**0,03 %**) viloyatlarida saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi  
Тел.: 71-202-80-42 (43)